

Reg. № D4-5/29
2026 yil “4” iyun

“TASDIQLANGAN”
“ANOR BANK” AJ
Kuzatuv kengashi tomonidan

2026 yil «26» may dagi
25 - sonli Bayonnoma

Kuzatuv kengashi raisi



“ANOR BANK”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
SIYOSATI

Tashkent — 2026

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur “ANOR BANK” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o‘rinlarda — Siyosat) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda), “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”, “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020 yil 25 maydagi 12/8-son qarori bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda 3254-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizom, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining boshqa hujjatlari hamda “ANOR BANK” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga (keyingi o‘rinlarda — Bank) muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Siyosat Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsion risklarni kamaytirish, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish sohasidagi maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, talablari va faoliyat yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy ichki hujjat hisoblanadi.

3. Siyosat Bank, uning xodimlari, aksiyadorlari, boshqaruv organlari hamda Bank nomidan va manfaatlari yo‘lida harakat qilish huquqiga ega boshqa shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ixtiyoriy ravishda qabul qilingan majburiyatlarga rioya qilish majburiyatini belgilaydi, shuningdek Bank biznes jarayonlarining xavfsizligini ta‘minlaydi.

4. Mazkur Siyosatning amal qilishi Bankning barcha tarkibiy bo‘linmalariga, xodimlariga (egallab turgan lavozimidan qat‘i nazar), Bank boshqaruv organlariga, shuningdek manfaatdor va affillangan shaxslarga tatbiq etiladi.

5. Siyosat talablari Bankning ichki biznes jarayonlarida ham, kontragentlar, hamkorlar va boshqa uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda ham qo‘llaniladi. Kontragentlar bilan shartnomaviy va boshqa ishbilarmonlik munosabatlarini o‘rnatishda mazkur Siyosat talablari majburiy tartibda hisobga olinadi.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati halol va etik biznes yuritish tamoyillariga asoslanadi. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi korrupsiya va poraxo‘rlikning har qanday shakliga nisbatan mutlaq murosasizlik siyosatiga amal qiladi. Bankning barcha xodimlari har qanday ishbilarmonlik aloqalari va munosabatlarida professional, adolatli va etik tarzda harakat qilishlari, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini faol joriy etishlari va ularga rioya qilishlari shart.

7. Mazkur Siyosat maqsadlari uchun quyidagi tushuncha va ta‘riflardan foydalaniladi:

- **kontragent** — mehnat munosabatlari bundan mustasno, Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan yoki kirishish niyatida bo‘lgan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxs (shu jumladan xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi shaxs);

- **korrupsiya** — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlari yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yo‘lida moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida noqonuniy foydalanishi, shuningdek bunday nafni noqonuniy taqdim etish;

- **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan va uni sodir etganlik uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

- **manfaatlar to'qnashuvi** — shaxsning shaxsiy manfaatdorligi (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) uning xizmat yoki mansab vazifalarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hamda bunda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

- **korrupsiyaga qarshi kurashish** — Bank xodimlari, Bank boshqaruv organlari a'zolari va Bank ichki nazorat bo'linmalari xodimlarining o'z vakolatlari doirasida korrupsion harakatlarni aniqlash, oldini olish, bartaraf etish, fosh etish, tekshirish va ularning sabablarini yo'qotish, shuningdek korrupsion harakatlar oqibatlarini minimallashtirish va/yoki bartaraf etishga qaratilgan faoliyati;

- **xayriya (xayriya faoliyati)** — yuridik va jismoniy shaxslarga (ehson oluvchilarga) ma'lum ishlar, xizmatlar va boshqa xayriya maqsadlarini amalga oshirish uchun bepul yoki imtiyozli shartlarda xizmat ko'rsatish maqsadida moddiy va/yoki nomoddiy aktivlarni pul shaklida berish;

- **xalqaro tashkilot** — davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan, ularning tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat'i nazar, har qanday xalqaro tashkilot, shu jumladan mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tashkilotlari;

- **xodim** — Bank bilan mehnat munosabatlariga kirgan jismoniy shaxs;

- **yaqin qarindoshlar** — o'zaro qarindoshlik yoki yaqin aloqalarda bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-onalar, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, bolalar (shu jumladan farzandlikka olinganlar), bobo-buvilar, nevaralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onalari, tug'ishgan va farzandlikka olingan aka-uka hamda opa-singillar;

- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi — Bank, uning boshqaruv organlari va xodimlarining berilgan vakolatlar doirasidagi quyidagi faoliyati:

- korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan korrupsiyaning sabablarini aniqlash va keyinchalik bartaraf etish (korrupsiyaning profilaktikasi);

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni va ularga sabab bo'luvchi shart-sharoitlarni aniqlash, oldini olish, bartaraf etish, fosh etish hamda tekshirish (korrupsiyaga qarshi kurashish);

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar oqibatlarini kamaytirish va (yoki) bartaraf etish.

8. Mazkur Siyosatning asosiy maqsadlari:

- Bank va uning xodimlarini korrupsion harakatlarga jalb etish xavflarini minimallashtirish;

- Bank xodimlari, shuningdek Bank manfaatlari yo'lida harakat qiluvchi shaxslar (agentlar, vositachilar, vakillar, kontragentlar va boshqalar) uchun korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning yagona standartlari va tartib-taomillarini belgilash;

- xodimlar, kontragentlar va boshqa manfaatdor shaxslarda Bank halol va ochiq faoliyat yuritishi hamda korrupsiyaning har qanday shakliga yo'l qo'ymasligi haqida aniq tushuncha shakllantirish;

- mazkur Siyosat tamoyillari va talablariga rioya etmaslik uchun shaxsiy javobgarlikni mustahkamlash.

9. Bank korrupsiya darajasi yuqori deb tavsiflanadigan xorijiy davlatlar yoki hududlarda ro'yxatdan o'tgan yoki doimiy yashovchi yuridik va jismoniy shaxslar bilan korrespondentlik munosabatlari, shuningdek boshqa ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatishda kuchaytirilgan e'tibor va chuqurlashtirilgan lozim darajadagi tekshiruv choralarini qo'llaydi.

II. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

10. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- **Qonuniylik** — Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, korrupsiyaga qarshi kurashishning ilg'or xalqaro amaliyoti hamda Bankning ichki hujjatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

- **Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik** — Bank korrupsiyaning barcha shakllari va ko'rinishlariga nisbatan mutlaq murosasizlik siyosatiga amal qiladi. Bank xodimlariga korrupsion xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlarda to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ishtirok etish qat'iy taqiqlanadi.

- **Ochiqlik va shaffoflik** — Bank korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida jamoatchilikni xabardor qilishni ta'minlaydi (maxfiylik va bank siri to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilgan holda).

- **Korrupsiyaga qarshi choralarining preventivligi, tizimliliigi va yaxlitligi** — Bank korrupsiyaning oldini olishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga sabab bo'luvchi omillar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish orqali ustuvor e'tibor qaratadi. Chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan korrupsion risklar darajasiga mutanosib bo'lishi hamda Bankning barcha biznes jarayonlari va funksiyalariga integratsiya qilinishi lozim.

- **Javobgarlikning muqarrarligi** — korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etgan Bank xodimlari egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

- **Ilmiy-texnik taraqqiyot va axborot texnologiyalaridan foydalanish** — Bank korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratish va rivojlantirishda zamonaviy ilm-fan yutuqlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol qo'llashga intiladi.

- **Rahbariyatga bevosita murojaat qilish huquqi** — korrupsion harakatlar haqida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda, Bank xodimi hech qanday to'siqlarsiz va javob choralaridan qo'rqmasdan o'zining bevosita rahbariga, Komplayens-nazorat boshqarmasiga yoki Bank Kuzatuv kengashiga murojaat qilish huquqiga ega.

- **Fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik** — Bank korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining amalga oshirilishi ustidan mustaqil nazoratni ta'minlash maqsadida fuqarolik jamiyati vakillari bilan hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

- **Monitoring, tahlil va samaradorlikni baholash** — Bank korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi faoliyati samaradorligini muntazam monitoring qiladi, tahlil qiladi va baholaydi.

- **Komplayens-nazorat tuzilmasining mustaqilligi** — Bankning Komplayens-nazorat boshqarmasi mustaqillikka ega bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashiga to'g'ridan-to'g'ri va erkin murojaat qilish imkoniyatiga ega, shuningdek belgilangan muddatlarda muntazam hisobotlar taqdim etish majburiyatini oladi.

- **Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimini doimiy takomillashtirish** — Bank korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimini uning samaradorligini oshirish, monitoring, nazorat va korrupsion risklarni minimallashtirish maqsadida uzluksiz ravishda takomillashtirib boradi.

III. KORRUPSION HARAKATLAR

11. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq quyidagi harakatlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar deb e'tirof etiladi:

- pora berish, shu jumladan vositachi orqali;
- pora olish, shu jumladan vositachi orqali;
- tijorat poraxo'rliqi;
- xizmat mavqei (vakolatlari)ni suiiste'mol qilish;
- moddiy yoki boshqa naf olish maqsadida Bank, jamiyat yoki davlatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda xizmat mavqeidan boshqacha noqonuniy foydalanish.

12. Bank xodimlariga mazkur Siyosatning 11-bandida ko'rsatilgan har qanday harakatlarni sodir etish taqiqlanadi. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali quyidagilar taqiqlanadi:

- pora taklif qilish, berish, va'da qilish, so'rash yoki olish;
- ma'muriy, byurokratik va boshqa rasmiyatchiliklarni soddalashtirish maqsadida to'lovlarni amalga oshirish yoki boshqa naf taqdim etish;
- manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltiradigan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan harakatlarda ishtirok etish.

13. 12-banda belgilangan taqiq har qanday shaxslar va tashkilotlarga, shu jumladan davlat xizmatchilariga, davlat organlari vakillariga, tijorat tashkilotlariga va ularning xodimlariga nisbatan pul mablag'lari, qimmatliklar, xizmatlar, sovg'alar, ko'ngilochar tadbirlar yoki boshqa imtiyozlarni taqdim etish yoki olishning barcha shakllariga tatbiq etiladi.

IV. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMI DOIRASIDA BANK BOSHQARUV ORGANLARI, BO'LINMALARI VA XODIMLARINING ASOSIY FUNKSIYALARI HAMDA VAKOLATLARI

14. **Bank Kuzatuv kengashi** Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha oliy organ hisoblanadi va:

- o'z vakolatlari doirasida mazkur Siyosatni hamda korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimining boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;
- Komplayens-nazorat boshqarmasini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda mazkur masalani keyinchalik Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tasdig'iga kiritadi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish va ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;
- Boshqaruv raisi va Komplayens-nazorat boshqarmasining amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobotlarini davriy ravishda eshitadi.

15. **Bank Boshqaruvi** korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish uchun mas'ul ijro etuvchi organ hisoblanadi va:

- o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki normativ hujjatlar, tashkiliy choralar va tartib-taomillarni, kompleks va tizimli tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi;

- Bank faoliyatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi uchun javobgar bo'ladi;

- barcha darajalarda korrupsiyaning har qanday shakli va ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabat tamoyillarini amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini joriy etadi va qo'llaydi;

- mazkur Siyosat qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, shu jumladan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimidagi masalalarning samarali va tezkor hal etilishini ta'minlaydi;

- Korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimini shakllantirish doirasidagi masalalar va amalga oshirilayotgan tadbirlar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

16. **Komplayens-nazorat boshqarmasi** Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini bevosita amalga oshiruvchi va muvofiqlashtiruvchi ixtisoslashtirilgan bo'linma hisoblanadi hamda:

- Bank xodimlari tomonidan mazkur Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Bankning rasmiy aloqa kanallari orqali kelib tushgan fuqarolar, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo'yicha murojaatlarini qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va ko'rib chiqishni ta'minlaydi hamda kelib tushgan xabarlar haqida Bank boshqaruv organlariga ma'lumot yetkazadi;

- korrupsiyaga oid ehtimoliy huquqbuzarliklar haqidagi kelib tushgan xabarlarni dastlabki (oldindan) ko'rib chiqadi va tekshiradi;

- yetarli asoslar tasdiqlanganda "Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom" va O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini boshlash bo'yicha taklif kiritadi;

- Bank xodimlari tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsion harakatlarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etgan xodimlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish choralarini ko'radi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ta'lim va targ'ibot tadbirlarini (seminarlar, davra suhbatlari, ma'ruzalar va treninglarni), shu jumladan davlat organlari vakillari ishtirokida tashkil etadi;

- Bankda korrupsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar va sharoitlarni tahlil qiladi hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-amaliy choralarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligidagi o'zgarishlarni monitoring qiladi va tegishli ma'lumotlarni Bankning tarkibiy bo'linmalariga yetkazadi;

- ichki normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va kelishilishi bosqichida korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazadi;
- Bankda korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy metodologiyasini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan holatlar bo'yicha aybdor shaxslarni qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqish uchun materiallarning taqdim etilishini ta'minlaydi.

17. **Personalni boshqarish departamenti** korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish, xodimlar bilan ishlash va Bankdagi manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish uchun mas'ul asosiy bo'linma hisoblanadi hamda:

- korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish maqsadida Bankning barcha xodimlarini, shu jumladan yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlarni mazkur Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar talablari bilan tanishtiradi;
- Bank xodimlarini korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitish hamda malakasini oshirishni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;
- Komplayens-nazorat boshqarmasi bilan birgalikda Bank xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va tartibga solishni tashkil etadi;
- Bank xodimlarining quyidagi deklaratsiyalarini yig'ish va nazorat qilishni ta'minlaydi:
 - a) ishga qabul qilishda va yangi lavozimga o'tkazishda mazkur Siyosat talablariga rioya qilish to'g'risidagi deklaratsiya (majburiyat);
 - b) Siyosat talablariga rioya qilish bo'yicha yillik deklaratsiya.

18. **Bank tarkibiy bo'linmalari rahbarlari** o'z bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish uchun bevosita javobgar hisoblanadilar va:

- barcha bo'ysunuvchi xodimlarga mazkur Siyosat, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar talablarini yetkazishni ta'minlaydilar;
- o'z bo'linmalarida korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantiradilar va qo'llab-quvvatlaydilar;
- mazkur Siyosat tamoyillariga shaxsan rioya qiladilar hamda bo'ysunuvchi xodimlardan ham rioya etishni talab qiladilar;
- korrupsiyaga oid ehtimoliy qoidabuzarliklar, manfaatlar to'qnashuvi yoki Siyosatning boshqa buzilishlari alomatlari yoki faktlari haqida aniqlangan holatlarni o'z vaqtida Komplayens-nazorat boshqarmasiga ma'lum qiladilar;
- bo'ysunuvchi xodimlarning Siyosat talablariga muvofiq o'qitilishi va yillik deklaratsiyadan o'tishini ta'minlaydilar;
- Bank tomonidan o'tkaziladigan korrupsiyaga qarshi tadbirlarda ishtirok etadilar;
- o'zlari boshqarayotgan bo'linmada mazkur Siyosat talablarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun shaxsan javobgar bo'ladilar.

19. Bankning barcha xodimlari:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, shuningdek mazkur Siyosat va Bankning boshqa ichki hujjatlari qoidalariga qat'iy rioya qilishlari;

- o'z xizmat vazifalarini Korporativ etika kodeksi talablariga rioya qilgan holda bajarishlari hamda korrupsiyaga oid har qanday huquqbuzarliklar yoki ularni sodir etish uchun sharoit yaratishi mumkin bo'lgan harakatlardan tiyilishlari;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undashning barcha holatlari, shuningdek Bankning boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan bunday huquqbuzarliklarning ma'lum faktlari haqida zudlik bilan o'zining bevosita rahbariga va/yoki Komplayens-nazorat boshqarmasiga xabar berishlari;

- korrupsiyaga qarshi tadbirlarda ishtirok etishlari hamda ushbu sohada qonunchilik va Bankning ichki hujjatlariga rioya etish uchun shaxsan javobgar bo'lishlari;

- manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasliklari;

- tijorat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarning saqlanishini ta'minlashlari hamda bunday ma'lumotlardan shaxsiy manfaat olish maqsadida foydalanmasliklari;

- o'z xizmat mavqeidan xizmatga oid bo'lmagan masalalarni hal qilishda bo'ysunuvchi xodimlarga ta'sir ko'rsatish uchun foydalanmasliklari, shuningdek bo'ysunuvchilarni yoki boshqa shaxslarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undamasliklari yoki majburlamasliklari;

- manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar va sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rishlari shart.

20. Bank nomidan va manfaatlari yo'lida harakat qiluvchi shaxslar (shu jumladan agentlar, vositachilar, maslahatchilar, vakillar, pudratchilar va boshqa kontragentlar):

- o'z majburiyatlarini bajarishda va Bank manfaatlari yo'lida faoliyatni amalga oshirishda mazkur Siyosat tamoyillari va talablariga rioya qilishlari shart;

- Bank nomidan yoki manfaatlari yo'lida har qanday korrupsion harakatlarni, shu jumladan pora taklif qilish, va'da berish, berish yoki olish, tijorat poraxo'rligini amalga oshirish yoki boshqa noqonuniy to'lovlar va imtiyozlarni taqdim etishga haqli emaslar;

- Bank uchun ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) bilan bog'liq har qanday korrupsion risklar yoki manfaatlar to'qnashuvi haqida Bankni o'z vaqtida xabardor qilishlari shart.

21. Bank mazkur shaxslar bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi majburiy bandlarni (shartlarni) kiritadi, ularda Bankning korrupsiyaga qarshi talablar bajarilishini tekshirish huquqi, shuningdek Siyosat buzilgan taqdirda shartnomani bir tomonlama bekor qilish asoslari nazarda tutiladi.

22. Bunday shaxslar bilan ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatishda Bank ichki tartib-taomillarga muvofiq lozim darajadagi tekshiruv (due diligence) jarayonini amalga oshiradi.

23. Siyosat talablari buzilganligi faktlari aniqlangan taqdirda, Bank shartnomaviy munosabatlarni bekor qilishgacha bo'lgan choralarni ko'radi hamda zarurat tug'ilganda ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etadi.

V. KORRUPSION RISKLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH TARTIBI

24. Korrupsion risklarni aniqlash, baholash va boshqarish Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

25. Korrupsion risklarni identifikatsiya qilish, baholash va darajalarga ajratish tartibi, shuningdek ularni minimallashtirish va nazorat qilish choralari Bankning alohida ichki hujjati — **“Korrupsion risklarni identifikatsiya qilish va baholash metodologiyasi”** bilan tartibga solinadi.

26. Komplayens-nazorat boshqarmasi yiliga kamida bir marta Bankning umumiy faoliyati hamda alohida faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha korrupsion risklarni baholaydi va baholash natijalarini Bank Kuzatuv kengashi hamda Boshqaruviga taqdim etadi.

27. Korrupsion risklarni baholash natijalariga ko‘ra Bank ularni kamaytirish bo‘yicha choralarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu jumladan ichki jarayonlar, tartib-taomillar va nazorat mexanizmlariga o‘zgartirishlar kiritadi.

28. Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari o‘z bo‘linmalarida korrupsion risklarni aniqlash jarayonida ishtirok etishlari hamda ularni boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta‘minlashlari shart.

VI. XODIMLARNI XABARDOR QILISH VA O‘QITISH

29. Bank barcha xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish va mazkur Siyosat talablariga rioya etish masalalari bo‘yicha tizimli ravishda xabardor qilish va uzluksiz o‘qitishni ta‘minlaydi.

30. Komplayens-nazorat boshqarmasi Personalni boshqarish departamenti bilan birgalikda har yili Bank xodimlari, shuningdek Bank nomidan va manfaatlari yo‘lida harakat qiluvchi shaxslar (agentlar, vositachilar, vakillar va boshqa kontragentlar) uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv dasturini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

31. Bankning barcha xodimlari, shu jumladan yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlar ish boshlaganidan keyingi birinchi oy davomida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kirish o‘quvidan o‘tishlari shart.

32. O‘quv mashg‘ulotlari muntazam ravishda, kamida yiliga bir marta o‘tkaziladi. Qonunchilik yoki Bankning ichki hujjatlariga sezilarli o‘zgartirishlar kiritilganda qo‘shimcha o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi mumkin.

33. Xodimlarni o‘qitishni tashkil etish va o‘tkazish uchun javobgarlik Personalni boshqarish departamenti hamda Komplayens-nazorat boshqarmasi zimmasiga yuklatiladi.

34. O‘qitish shakllari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin::

- kunduzgi va masofaviy seminarlar, treninglar va vebinarlar;
- axborot tarqatmalari va eslatmalar;
- xodimlarning Siyosatning asosiy qoidalari bo‘yicha bilimlarini testdan o‘tkazish.

35. Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari bo‘ysunuvchi xodimlarning majburiy o‘quv tadbirlarida ishtirok etishini ta‘minlashlari va o‘qitish natijalarini nazorat qilishlari shart.

VII. SOVG‘ALAR VA VAKILLIK XARAJATLARI

36. Bank sovg‘alarni taqdim etish va qabul qilish, shuningdek vakillik xarajatlari bilan bog‘liq masalalarni “Sovg‘alar va vakillik xarajatlari to‘g‘risidagi nizom” nomli alohida ichki hujjatga muvofiq tartibga soladi.

37. Bank xodimlariga quyidagilar taqiqlanadi:

- pul mablag‘lari (naqd yoki naqdsiz shaklda) ko‘rinishidagi sovg‘alarni berish yoki qabul qilish;
- davlat xizmatchilariga va boshqa shaxslarga sovg‘alar taklif qilish yoki ulardan sovg‘alar qabul qilish, agar bu korrupsiyaga oid huquqbuzarlik yoki manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltirish sifatida baholanishi mumkin bo‘lsa.

38. Barcha sovg‘alar va vakillik xarajatlari oqilona, mutanosib, shaffof bo‘lishi va Bank uchun reputatsion risklarni yuzaga keltirmasligi kerak.

VIII. MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING OLDINI OLISH VA UNI TARTIBGA SOLISH

39. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni tartibga solish masalalari manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha alohida Siyosat bilan tartibga solinadi.

40. Bankning barcha xodimlari, shu jumladan boshqaruv organlari a‘zolari quyidagilarga majbur:

- mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma‘lumotni o‘z vaqtida oshkor qilish;
- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yoki uni mazkur Siyosatda belgilangan tartibda tartibga solish bo‘yicha choralar ko‘rish.

41. Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha talablarning bajarilishi ustidan nazorat Komplayens-nazorat boshqarmasi va Personalni boshqarish departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

IX. QOIDABUZARLIKLAR HAQIDA XABAR BERISH VA MUROJAATLARNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

42. Bank xodimlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, ularga undash holatlari yoki mazkur Siyosatning boshqa buzilishlari haqidagi har qanday faktlar yoki gumonlar haqida zudlik bilan xabar berishlari shart.

43. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarini taqdim etish, qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish tartibi, shuningdek xodimlarni korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish masalalari Bankning alohida ichki hujjati — “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarini taqdim etish, qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibi hamda xodimlarni korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish to‘g‘risidagi nizom” bilan tartibga solinadi.

44. Xabarlar quyidagilarga yuborilishi mumkin:

- bevosita rahbarga;
- Komplayens-nazorat boshqarmasiga;
- ishonch telefonlari orqali (anonim yoki ochiq tarzda).

45. Bank anonim xabarlarini qabul qiladi va ko‘rib chiqadi. Bunda Bank anonim xabarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha javob yubormaslik huquqini o‘zida saqlab qoladi.

46. Bank olingan ma‘lumotlarning maxfiyligini hamda qoidabuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni (shu jumladan ochiq tarzda xabar berganlarni) O‘zbekiston Respublikasi

qonunchiligiga muvofiq har qanday ta'qib, diskriminatsiya yoki boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishni ta'minlaydi.

X. XIZMAT TEKSHIRUVLARI VA NAZORAT

47. Ehtimoliy korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bilan bog'liq barcha xabarlar va faktlar majburiy ravishda ko'rib chiqilishi hamda zarurat tug'ilganda xizmat tekshiruvi o'tkazilishi lozim.

48. Xizmat tekshiruvlarini tashkil etish, o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi "Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom" bilan tartibga solinadi va O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

49. Xizmat tekshiruvlari maxsus tayinlangan komissiya tomonidan o'tkaziladi. Zarurat tug'ilganda tekshiruvni o'tkazishga Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalari ham jalb etilishi mumkin.

50. Xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- faktlar tasdiqlanmaganligi sababli tekshiruvni tugatish;
- aybdor xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llash;
- materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish.

51. Bank xodimlari xizmat tekshiruvlarini o'tkazishda ko'maklashishlari va komissiya yoki mas'ul shaxslarning so'roviga binoan ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

XI. YAKUNIY QOIDALAR

52. "ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyatining mazkur Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, shuningdek unga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

53. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan barcha hollarda Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladi.

54. Mazkur Siyosat qoidalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari yoki Bank Ustaviga zid bo'lgan taqdirda, qonunchilik va Ustav normalari qo'llaniladi. Bunday holda Bank mazkur bo'limning 52-bandida belgilangan tartibda Siyosatga tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

55. Mazkur Siyosatga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgartirishlarida, samarasiz qoidalar aniqlanganda, shuningdek Bankning biznes jarayonlarida sezilarli o'zgarishlar yuz berganda o'zgartirishlar kiritiladi.

56. Tarkibiy bo'linmalar va/yoki lavozimlar nomlari o'zgartirishlarida, shuningdek bo'linmalar o'rtasida funksiyalar qayta taqsimlanganda, mazkur Siyosatga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar unga muvofiq ish tegishli bo'linmalar va xodimlar tomonidan davom ettiriladi.

57. Mazkur Siyosat Bankning rasmiy korporativ internet saytida erkin foydalanish uchun joylashtiriladi. Bank korrupsiyaning har qanday shaklini rad etishini ochiq e'lon qiladi, barcha xodimlar, kontragentlar va boshqa shaxslar tomonidan Siyosat tamoyillariga rioya etilishini rag'batlantiradi hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi madaniyat darajasini oshirishga ko'maklashadi.

58. Mazkur Siyosat kuchga kirgan sanadan boshlab Bank Kuzatuv kengashining 2021 yil 25 fevraldagi 7-sonli Bayonnomasi bilan tasdiqlangan "ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyatining avvalgi Korrupsiyaga qarshi siyosati o'z kuchini yo'qotadi.

Kiritildi:

Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig'i  D. Xushnazarov

Kelishildi:

Boshqaruv raisi  Sh. Akramov

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari  E. Nadjimitdinov

Boshqaruv raisi o'rinbosari  E. Kadirov

Boshqaruv raisi o'rinbosari  A. Saydullayev

Boshqaruv raisi o'rinbosari  S. Xan

Boshqaruv raisi o'rinbosari  M. Nurutdinova

Boshqaruv raisi o'rinbosari  M. Avazov


Yuridik boshqarma boshlig'i  T. Zanaxov

Boshqaruvchi director  A. Bakiyev

Bosh buxgalter  U. Babayev

Ichki audit departamenti direktori  S. Usmanov

Ichki nazorat departamenti direktori  M. Pulatova

Risk-menejment departamenti direktori  D. Ibragimova